

№498, 9-mart, 2022 y.

COVID-19 ga qarshi vaksinalarning  
ishlanmalari bo'yicha

# DAYJEST

O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi huzuridagi  
Ilmiy-texnik axborot markazi











Toshkent-2022

# Jahonda pandemiya bilan bog'liq vaziyat

2022 y. 8-mart holatiga ko'ra

Umumiy zararlanganlar soni	-	447 852 736	(+ 1 223 933)
Sog'ayganlar soni	-	381 927 898	(+ 1 798 426)
Vafot etganlar soni	-	6 027 065	(+ 4 921)

## Mamlakatlar bo'yicha bemorlar soni


	AQSh	-	80 979 977	(+ 25 751)
	Hindiston	-	42 971 308	(+ 3 993)
	Braziliya	-	29 069 469	(+ 20 456)
	Fransiya	-	23 071 822	(+ 14 496)
	Buyuk Britaniya	-	19 245 114	(+ 41 977)
	Rossiya	-	17 014 818	(+ 73 162)
	Germaniya	-	15 951 350	(+ 122 895)
	Turkiya	-	14 388 231	(+ 34 343)
	Italiya	-	13 049 336	(+ 22 645)
	O'zbekiston	-	237 045	(+ 51)

Manba: <https://www.worldometers.info/coronavirus/>




# O'zbekistonda pandemiya bilan bog'liq vaziyat

2022 y. 8-mart holatiga ko'ra



Fevral 2022-yil



Mart 2022-yil



# O'zbekistonda COVID-19 qarshi vaksinatsiya bo'yicha hisobot

2022 y. 7-mart holatiga ko'ra

Hududlar	Jami emlanganlar soni	Bir kunda emlanganlar soni
Qoraqalpog'iston Respublikasi	2 313 824	4 675
Andijon viloyati	4 621 101	13 174
Buxoro viloyati	2 560 389	4 904
Jizzax viloyati	1 617 292	3 058
Qashqadaryo viloyati	3 752 101	9 148
Navoiy viloyati	1 456 661	2 691
Namangan viloyati	4 225 558	5 607
Samarqand viloyati	5 467 368	11 014
Surxondaryo viloyati	3 678 595	7 914
Sirdaryo viloyati	1 046 176	2 206
Toshkent viloyati	4 413 197	14 102
Farg'ona viloyati	4 999 588	8 107
Xorazm viloyati	2 743 177	5 142
Toshkent sh.	3 653 265	5 857
<b>Jami</b>	<b>46 548 292</b>	<b>97 599</b>

Manba: SSV matbuot kotibi // <https://t.me/ssvmatbuotkotibi>



# Amerikalik olimlar koronavirusning “Omikron” shtamming antikorlarning samaradorligini pasaytiradigan uchta kichik qismini aniqladilar

Kolumbiya universiteti va Gonkong universiteti olimlari tomonidan o‘tkazilgan yangi tadqiqotga ko‘ra, Omicron shtamming barcha subvariantlariga qarshi faqat bitta tasdiqlangan antitanani davolash faolligicha qolmoqda. Nature ilmiy jurnalida chop etilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra, mRNK vaksinalarining samaradorligi Omicronning barcha uchta kichik variantiga nisbatan kamayadi [2].

Tadqiqotchilar boshqoq oqsilida 21 ta mutatsiyaga ega uchta subvariantni aniqladilar va ular BA.1, BA.1.1 va BA.2 deb nomlandi. Dekabr oyidan boshlab BA.1 holatlari soni kamayib, BA1.1 holatlari ko‘paydi va hozirda butun dunyo bo‘ylab ketma-ket ravishda barcha Omicron holatlarining taxminan 40% ni tashkil qilmoqda. BA.2 subvarianti hozirda butun dunyo bo‘ylab Omicron holatlarining atigi 10% ni tashkil qiladi, ammo uning tarqalishi ortib bormoqda [3].

Laboratoriya tajribalari davomida Xo va uning jamoasi 19 ta monoklonal antitanalar va ikkita mavjud mRNA vaksinalaridan biri bilan immunizatsiya qilingan inson zardoblarining uchta ma‘lum Omicron subvariantlarini zararsizlantirish qobiliyatini o‘rgandilar.



BA.1 variantini avvalgi o‘rganishlariga muvofiq, tadqiqotchilar ikkita mRNA inyeksiyasini olgan odamlardan olingan qon namunalarida BA.1.1 va BA.2 ga nisbatan neytrallashtiruvchi faollikning xuddi shunday yo‘qolishini kuzatdilar. Neytrallanishning pasayishi uchta mRNA dozasi olgan odamlarning qon

namunalarida kamroq aniqlandi, bu immunitetni saqlashda kuchaytiruvchi dozalarning muhimligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Neytrallash tajribalarida uchala variant ham tekshirilgan monoklonal antitanalarning aksariyat qismiga kuchli qarshilik ko‘rsatdi. 19 ta antitanalardan 17 tasi BA.2 subvariantiga nisbatan samarasiz bo‘ldi. Tekshiruvchilar FDA tomonidan tasdiqlangan eng yangi monoklonal antitana bo‘lgan bebtelovimab hozirda mavjud bo‘lgan yagona antitana terapiyasi bo‘lib, Omicronning barcha uchta kichik variantini adekvat davolashga qodir ekanligini aniqladilar [4].

# Tailand mahalliy vaksinalarni ishlab chiqish bo'yicha ilg'or tajribalarni e'lon qildi



Mahalliy ishlab chiqilgan to'rtta COVID-19 vaksinasi va antitanali nazal vaksinasi Tailand oziq-ovqat va farmatsevtika idorasida ro'yxatdan o'tish uchun rejalashtirilgan, deb ma'lum qildi hukumat matbuot kotibi o'rinbosari Rachada Dhnadirek, The Nation nashrida [5].

To'rtta vakcina - Chula-Cov19, HXP-GPOVac, Baiya SARS-CoV-2 Vax va Kovigen – insonlarda sinovdan o'tkazilmoqda va sinovlarning uchta bosqichi tugagandan so'ng ro'yxatdan o'tishga tayyor bo'ladi, dedi Rachada Dhnadirek.

Rachadaning aytishicha, 20 dan ortiq COVID-19 vaksinalari Tailanddagi turli davlat idoralari, universitetlari, hamda kompaniyalari tomonidan joriy qilinmoqda va ishlab chiqilmoqda. Rivojlanishda virusli vektor, oqsil subunit, mRNK kabi virusga o'xshash zarralarining bir qancha usullar qo'llaniladi.



Uning so'zlariga ko'ra, Bosh vazir Prayut Chan-Ocha Tailand tadqiqotchilari va agentliklarini COVID-19 vaksinalarini yaratishdagi fidoyiliklari va hamkorliklari uchun yuqori baholagan. Ular sababli Tailandning tadqiqot va COVID-19 vaksinasini ishlab chiqishdagi yutuqlari mintaqada birinchi o'rinda, – deb ma'lum qildi Prayut [6, 7].

# Gamaleya markazi COVID-19 ga qarshi yangi nazal vaksinaning ro'yxatdan o'tkazish vaqtini ma'lum qildi

Gamaleya nomidagi Epidemiologiya va mikrobiologiya ilmiy-tadqiqot markazi direktori Aleksandr Gintzburg koronavirusga qarshi burun vakinasini ro'yxatdan o'tkazish tartibi haqida ma'lum qildi, deb xabar beradi RIA Novosti axborot xizmati [8].



Gamaleya markazi rahbari COVID-19 ga qarshi nazal vakcina emlash muddatidan oldin ro'yxatdan o'tganini e'lon qildi va bu Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan belgilangan muddatdan ertaroq – 17-martgacha sodir bo'lishi mumkinligini tan oldi. 17-martga qadar qancha miqdorda intranazal vakcina yordamida emlash va

natijalarga ko'ra hisobot yozilishi hamda ushbu hisobot natijalariga ko'ra Sog'liqni saqlash vazirligi ro'yxatdan o'tkazish bo'yicha jarayonlar amalga oshirilishini aytib o'tdi. Ko'rinishidan, vakcina avvalroq ro'yxatdan o'tkazilishi mumkin», - deya ta'kidladi Gunzburg.

Markaz direktorining qo'shimcha qilishicha, 104 nafar ko'ngilli allaqachon nazal vakcina orqali emlangan. Uning so'zlariga ko'ra, bemorlarda asoratlari va nojo'ya reaksiyalar qayd etilmagan [9].

Avvalroq Gunzburg nazal vakcinasi COVID-19 ga qarshi xavfsizligini baholagan edi. Uning ta'kidlashicha, u organizmga zarar keltirmaydi, chunki unda tirik virus mavjud emas. "Sputnik V" nazal vakcinasi preparatning mushakka foydalaniladigan versiyasi bilan bir qatorda, koronavirusga qarshi qo'shimcha ravishda himoya hisoblanadi, hamda kamroq nojo'ya ta'sirga ega preparat [10].



Mutaxassislarning fikricha, vakcina "o'zgacha immunitet" hosil qiladi. Vakcina COVID-19 uchun nozik bo'lgan halqum qismga tushadi. Preparat tarkibidagi mavjud virus hujayralari bilan bog'lanadi va immunitet reaksiyasi rivojlana boshlaydi. Buning yordamida shilliq qavatni bog'laydigan A-immunoglobulinlar hosil bo'ladi va himoyalana. Aynan mana shu yo'llar orqali koronavirus yuqadi [11].





COVID  
19

Manbalar

1. Reported Cases and Deaths by Country, Territory, or Conveyance // <https://www.worldometers.info/coronavirus/> (7.03.2022)
2. Antibody evasion properties of SARS-CoV-2 Omicron sublineages // <https://www.nature.com/articles/s41586-022-04594-4> (7.03.2022)
3. Vaccine and antibody treatment effectiveness blunted by all three Omicron subvariants // <https://medicalxpress.com/news/2022-03-vaccine-antibody-treatment-effectiveness-blunted.html> (7.03.2022)
4. Три подварианта Омикрон снижают эффективность лечения вакцинами и антителами // <https://kurer-sreda.ru/2022/03/07/779656-tri-podvarianta-omikron-snizhayut-effektivnost-lecheniya-vakcinami-i-antitelami> (7.03.2022)
5. 4 Thai-developed Covid-19 vaccines, nasal spray fast nearing finish line // <https://www.nationthailand.com/in-focus/40013075> (7.03.2022)
6. В Таиланде заявили о передовом в регионе опыте разработки вакцин // <https://rossaprimavera.ru/news/74a7c8c9> (7.03.2022)
7. Local Covid vaccines undergo human trials // <https://www.bangkokpost.com/thailand/general/2274523/local-covid-vaccines-undergo-human-trials> (7.03.2022)
8. Гинцбург: назальную вакцину от COVID-19 могут зарегистрировать раньше срока // <https://ria.ru/20220307/vaktsina-1776988180.html> (7.03.2022)
9. Гинцбург анонсировал скорую регистрацию назальной вакцины от коронавируса // <https://lenta.ru/news/2022/03/07/faster/> (7.03.2022)
10. Минздрав рассказал о новом назначении назальной вакцины // <https://lenta.ru/news/2022/02/03/nazalnaya/> (7.03.2022)
11. Вирусолог назвал преимущества назальной вакцины от коронавируса // <https://lenta.ru/news/2022/02/03/virussss/> (7.03.2022)







O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi huzuridagi  
Ilmiy-texnik axborot markazi

Toshkent-2022